



KORRUPSIYAGA OID JINOYATLAR VA ULARNING OLDINI OLISH MEXANIZMLARI

Rustamov Mahmud Husniddin o'gli

Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat universiteti

Yuridika fakulteti yurisprudensiya yo'nalishi

105-guruh bakalavriat talabasi

Jienbaeva Salima

Ilmiy rahbar; Stajyor-o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20655346>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 08-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 10-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 12-iyun 2026 yil

KEYWORDS

Korrupsiya, pora olish, pora berish, mansabdor shaxs, jinoyat tarkibi, javobgarlik, profilaktika, shaffoflik, huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada korrupsiyaga oid jinoyatlarning huquqiy mohiyati, ularning jamiyat va davlat boshqaruviga salbiy ta'siri, shuningdek, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar tahlil qilinadi. Mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari asosida korrupsiyaning nazariy jihatlarini yoritilib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy asosda bayon etiladi. Tadqiqot natijasida korrupsiyaga qarshi kurashishda kompleks yondashuv zarurligi asoslab beriladi.

Korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa hisoblanadi. "Korrupsiya" atamasi lotincha corruptio so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "buzilish", "aynish", "poraxo'rlik" degan ma'nolarni anglatadi. Ilmiy adabiyotlarda korrupsiya asosan mansab vakolatidan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish sifatida ta'riflanadi.

Huquqiy nuqtai nazardan korrupsiya — bu mansabdor shaxsning o'z xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilishi yoki ulardan noqonuniy foydalanishi orqali moddiy yoki nomoddiy manfaat olishidir. Korrupsiyaning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

Mansab yoki xizmat vakolatining mavjudligi;

Ushbu vakolatdan noqonuniy foydalanish;

Shaxsiy manfaatdorlik;

Jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetishi.

Korrupsiya masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Xorijiy olimlardan Susan Rose-Ackerman korrupsiyani iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida tahlil qilgan.[1,B.12].¹U korrupsiyaning asosiy sababi sifatida davlat nazoratining sustligi va shaffoflikning yetishmasligini ko'rsatadi. Uning fikricha, korrupsiya investitsiya muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi.

Susan Rose-Ackerman nazariyasiga ko'ra, agar mansabdor shaxs monopol vakolatlariga ega bo'lsa, qaror qabul qilishda keng ixtiyoriylikka ega bo'lsa va uning faoliyati ustidan nazorat sust bo'lsa, korrupsiya xavfi ortadi.

¹ Rose-Ackerman S. *Corruption and Government: Causes, Consequences and Reform*. – Cambridge: Harvard University Press, 1999.

Shuningdek, Samuel Huntington korrupsiyani modernizatsiya jarayonlari bilan bog'lab, rivojlanayotgan davlatlarda institutsional tizimlar yetarli darajada shakllanmagani sababli korrupsiya kuchayishini ta'kidlagan.[7,B.45]²

Mahalliy olimlardan M. Rustamboyev jinoyat huquqi doirasida korrupsiyaga oid jinoyatlarning tarkibini chuqur tahlil qilgan.[4,B.56]³ U pora olish va pora berish jinoyatlarining obyektiv va subyektiv tomonlarini keng yoritib bergan.

Z. Islomov esa davlat va huquq nazariyasi doirasida korrupsiyani huquqiy ong va huquqiy madaniyat bilan bog'lab o'rganadi.[6,B.102]⁴ Uning fikricha, korrupsiyani kamaytirishda aholining huquqiy savodxonligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

Xalqaro miqyosda korrupsiya masalasi 2003-yilda qabul qilingan BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi orqali yanada tizimli ravishda tartibga solindi. Mazkur hujjatda korrupsiyaga oid jinoyatlarning turlari, ularni aniqlash va oldini olish mexanizmlari belgilab berilgan.[3,B.7].

Shu bilan birga, korrupsiya nafaqat huquqiy, balki iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy muammo sifatida ham ko'riladi. Shu sababli uni o'rganishda kompleks yondashuv zarur hisoblanadi.

Umuman olganda, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korrupsiya davlat boshqaruvi tizimidagi nomukammallik, nazorat mexanizmlarining sustligi hamda huquqiy madaniyatning yetarli darajada shakllanmaganligi natijasida yuzaga keladi.

Korrupsiyaga oid jinoyatlar o'zining murakkabligi, yashirinligi va ijtimoiy xavfliligi bilan ajralib turadi. Ular nafaqat alohida shaxslar manfaatiga, balki butun jamiyat va davlat tizimiga zarar yetkazadi. Jinoyat huquqi nuqtai nazaridan korrupsion jinoyatlar mansabdor shaxsning o'z xizmat vakolatini suiiste'mol qilishi orqali sodir etiladi. Korrupsiyaga oid jinoyatlarning eng katta muammolaridan biri — ularning yuqori darajadagi latentligi (yashirinligi)dir. Ko'pincha pora beruvchi va pora oluvchi o'zaro manfaatdor bo'lganligi sababli jinoyat oshkor etilmaydi. Natijada statistik ma'lumotlar real holatni to'liq aks ettirmaydi. Latent jinoyatchilik korrupsiyaga qarshi kurashishda asosiy to'siqlardan biri bo'lib, jinoyatni aniqlash va isbotlash jarayonini murakkablashtiradi.[4,B.56].

Korrupsion jinoyatlar ko'pincha davlat hokimiyati yoki boshqaruv organlari vakillari⁵ tomonidan sodir etiladi. Mansab mavqei jinoyatni yashirish imkoniyatini oshiradi. Ayrim hollarda ichki nazorat tizimining sustligi yoki manfaatlar to'qnashuvi korrupsiyaga sharoit yaratadi. Bu holat jamiyatda adolat tamoyilining buzilishiga va fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchi pasayishiga olib keladi. Korrupsiyaning keng tarqalishiga aholining huquqiy madaniyati yetarli darajada shakllanmaganligi ham sabab bo'ladi. Ayrim hollarda fuqarolar pora berishni "ishni tezlashtirish vositasi" deb qabul qiladi. Bu esa korrupsion munosabatlarni mustahkamlaydi.

² O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent <https://lex.uz/docs/3088008>

³ United Nations Convention against Corruption (UNCAC). – New York: United Nations, 2003. <https://www.unodc.org/unodc/en/corruption/uncac.html>

⁴ Rustamboyev M.X. Jinoyat huquqi (Maxsus qism). – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023 <https://lex.uz/docs/111453>

Huquqiy ong past bo'lgan jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik darajasi ham past bo'ladi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda qonunchilikning mukammalligi muhim ahamiyatga ega. Agar normativ-huquqiy hujjatlarda aniq mexanizmlar belgilab qo'yilmagan bo'lsa yoki ularning ijrosi ustidan nazorat sust bo'lsa, bu korrupsiyaga sharoit yaratadi.

Masalan, davlat xaridlari jarayonida shaffoflik yetarli darajada ta'minlanmasa, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin.[2,B.4].⁶

Jinoyat huquqining asosiy tamoyillaridan biri — jazolarning muqarrarligidir. Agar korrupsion jinoyat sodir etgan shaxs jazosiz qolsa yoki jazodan qochishga muvaffaq bo'lsa, bu boshqa shaxslarni ham shunday jinoyat sodir etishga undashi mumkin. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurashishda jinoyatni aniqlash, tergov qilish va sud jarayonlarining shaffofligini ta'minlash muhimdir. Korrupsiya davlat byudjetiga sezilarli darajada zarar yetkazadi. Byudjet mablag'larining noqonuniy o'zlashtirilishi ijtimoiy sohalar — ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada aholi farovonligi pasayadi. Shuningdek, korrupsiya investitsiya muhitini yomonlashtiradi va xorijiy investorlar ishonchini kamaytiradi.

Umuman olganda, korrupsiyaga oid jinoyatlar murakkab va ko'p omilli muammo bo'lib, ularni bartaraf etish faqat jinoyat-huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Korrupsiyaga qarshi kurashish faqat jinoyat sodir bo'lgandan keyin jazolash bilan cheklanmasligi kerak. Zamonaviy yondashuvga ko'ra, korrupsiyani oldini olish profilaktik, huquqiy, institutsional va ijtimoiy choralarni uyg'un qo'llash orqali amalga oshiriladi. Ilmiy adabiyotlarda korrupsiyaga qarshi kurashishning uch asosiy yo'nalishi ajratiladi: huquqiy, institutsional va ijtimoiy mexanizmlar. Huquqiy mexanizmlar korrupsiyaga qarshi kurashishda eng muhim omil hisoblanadi. Jinoyat kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar orqali korrupsion jinoyatlar uchun aniq javobgarlik belgilanishi lozim.[5,B.23].⁷

Birinchiidan, jazolarning muqarrarligi ta'minlanishi kerak. Mansabdor shaxslar o'z vakolatlarini suiiste'mol qilganda, ular aniq va qat'iy javobgarlikka tortilishi lozim.

Institutsional mexanizmlar korrupsiyani tizimli ravishda kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashishga ixtisoslashgan mustaqil organlarning faoliyati, ichki audit va moliyaviy nazorat tizimlarining samarali ishlashi, davlat xizmatlarini raqamlashtirish hamda elektron hukumat tizimining joriy etilishi korrupsion xavflarni sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bilan birga, davlat organlari faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratining kuchaytirilishi ham hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.[10] ⁸Shu bilan birga, davlat xaridlari va qarorlar jarayonining ochiqligi ham shaffoflikni oshiradi. Sud hokimiyatining mustaqilligi jazolarning adolatli va muqarrar qo'llanilishini ta'minlaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda ijtimoiy va profilaktik choralar ham katta ahamiyatga ega. Raqamli nazorat tizimlarini kengaytirish va har bir davlat organida korrupsion xavflarni baholash tizimini joriy etish. Mansabdor shaxslar uchun majburiy etnik kodeks

⁶ Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2018.

⁷ Huntington S.P. Political Order in Changing Societies. – New Haven: Yale University Press, 1968.

⁸OECD Anti-Corruption and Integrity Outlook 2024. – Paris: OECD Publishing, 2024

<https://www.oecd.org/corruption-integrity>

talablarini kuchaytirish va ularning amal qilishini nazorat qilish. Fuqarolarning murojaatlarini tezkor, ochiq va shaffof ko'rib chiqish tizimini yaratish. Jazolarning muqarrarligini ta'minlash orqali profilaktik ta'sirni kuchaytirish. Ta'lim va ommaviy axborot vositalari orqali korrupsiyaga nisbatan muhosasizlikni targ'ib qilish. Umuman olganda, korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki davlat, jamiyat va har bir fuqaroning umumiy mas'uliyati hisoblanadi. Kompleks yondashuv, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillariga amal qilish korrupsiyani kamaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birgalikda xalqaro maydonda olib borilayotgan tajribalarni ham amaliyotda sinab ko'rishimiz ham ijobiy natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Malayziya tajribasi korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali institutsional mexanizmlarni yaratishning muhim namunalaridan biri hisoblanadi.[13] ⁹Ushbu mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy va tashkiliy asoslari XX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshlagan. Xususan, 1967-yilda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilgan bo'lsa, 2009-yilda uning negizida Malayziya Korrupsiyaga qarshi komissiyasi (Malaysian Anti-Corruption Commission – MACC) tuzilgan.[13] ¹⁰MACC davlat va xususiy sektordagi korrupsion holatlarni aniqlash, tergov qilish hamda ularning oldini olish bilan shug'ullanadi. Mazkur komissiya faoliyatining asosiy yo'nalishlari korrupsion jinoyatlarni fosh etish, fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish, profilaktik tadbirlarni amalga oshirish va aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishdan iborat. Malayziyada korrupsiyaning oldini olish maqsadida 2004-yilda Milliy Halollik Rejasi (National Integrity Plan) qabul qilingan.[14] ¹¹Ushbu dastur davlat organlari, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida shaffoflik hamda hisobdorlikni kuchaytirishga qaratilgan. Shuningdek, mazkur yo'nalishda Malayziya Halollik Instituti (Integrity Institute of Malaysia) faoliyat yuritib, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishda muhim o'rin egallaydi.[15]

Malayziya tajribasining yana bir muhim jihati jamoatchilik nazoratining keng yo'lga qo'yilganligidir. Fuqarolar korrupsiyaga oid holatlar haqida maxsus telefon liniyalari, elektron platformalar va onlayn murojaat tizimlari orqali xabar berish imkoniyatiga ega. Bu esa korrupsion huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga chek qo'yishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, Malayziyada xabar beruvchilarni himoya qilish mexanizmlari ham rivojlangan. Xususan, 2010-yilda qabul qilingan "Whistleblower Protection Act" qonuni korrupsiyaga oid ma'lumotlarni oshkor qilgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni nazarda tutadi.[13] Mazkur qonun fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashdagi faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashishda ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilishi ham Malayziya tajribasining muhim jihatlaridan biridir. Oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirishga qaratilgan seminarlar, davra suhbatlari va maxsus o'quv dasturlari muntazam tashkil etiladi.[15] Natijada yoshlar orasida

⁹ O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. Rasmiy veb-sayt. – Toshkent, 2026 <https://anticorruption.uz>

¹⁰ Transparency International. Corruption Perceptions Index 2025. – Berlin, 2025 <https://www.transparency.org/en/cpi>

¹¹ World Bank. Governance and Anti-Corruption Reports. – Washington D.C., 2025. <https://www.worldbank.org/en/topic/governance>

korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga erishilmoqda. Umuman olganda, Malayziya tajribasi korrupsiyaga qarshi kurashishda maxsus vakolatli organlar faoliyatini takomillashtirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, raqamli boshqaruv tizimlarini rivojlantirish va aholining huquqiy ongini oshirish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Mazkur tajribaning ayrim jihatlarini O'zbekiston sharoitida qo'llash korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tajribasi va mualliflik takliflari. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017-yilda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi mazkur yo'nalishdagi huquqiy asoslarni mustahkamlashga xizmat qildi[2]¹² Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tashkil etilishi, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi hamda davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflik tamoyillarining joriy etilishi korrupsion xavflarni kamaytirishga qaratilgan muhim qadamlardan biri bo'ldi.[8]¹³

Davlat xizmatlari markazlari faoliyatining yo'lga qo'yilishi, elektron hukumat tizimining rivojlantirilishi va davlat xaridlarining elektron platformalar orqali amalga oshirilishi inson omilini kamaytirib, korrupsion holatlarning oldini olishga xizmat qilmoqda.[8;12] Bundan tashqari, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining kuchaytirilishi ham korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirmoqda. Muallifning fikricha, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi: Birinchidan, barcha davlat organlarida korrupsion xavflarni muntazam baholab boruvchi raqamli monitoring tizimini joriy etish zarur. Ikkinchidan, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirishga qaratilgan maxsus o'quv kurslari va amaliy seminarlar sonini ko'paytirish lozim. Uchinchidan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. To'rtinchidan, davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash maqsadida byudjet mablag'larining sarflanishi hamda davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiq elektron platformalarda muntazam e'lon qilinishini kengaytirish zarur. Beshinchidan, mansabdor shaxslarning daromad va mol-mulklarini deklaratsiyalash tizimini yanada takomillashtirish orqali manfaatlar to'qnashuvining oldini olish mumkin. Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini oshirishga, davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlashga hamda fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyani 2008-yil 24-sentyabrda ratifikatsiya qilgan bo'lib, uning qoidalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha izchil choralarni amalga oshirib kelmoqda.[3]¹⁴Xususan,

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi farmon va qarorlari. – Toshkent, 2025 <https://lex.uz>

¹³ Malaysian Anti-Corruption Commission (MACC). Annual Report 2024. – Putrajaya, 2024. <https://www.sprm.gov.my>

¹⁴. Integrity Institute of Malaysia. Integrity and Governance Programmes Report. – Kuala Lumpur, 2024 <https://www.iim.gov.my>

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash hamda korrupsion huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan institutsional mexanizmlarni joriy etish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy amaliyotga tatbiq etish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.[10;11] ¹⁵Bu esa mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini oshirish va xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa

Tadqiqotning ilmiy yangiligi korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy va institutsional mexanizmlarini tahlil qilish, Malayziya tajribasi hamda O'zbekiston amaliyotini qiyosiy o'rganish asosida korrupsion xavflarni kamaytirishga qaratilgan mualliflik takliflarini ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi.

Korrupsiya bugungi kunda davlat va jamiyat taraqqiyotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa hisoblanadi. U davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytiradi, iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi hamda fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini susaytiradi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga oid jinoyatlarning kelib chiqishiga huquqiy nazoratning sustligi, davlat boshqaruvidagi shaffoflikning yetarli emasligi, manfaatlar to'qnashuvi va huquqiy madaniyatning pastligi sabab bo'ladi. Mazkur omillar korrupsion munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratadi hamda ularning yashirin ravishda sodir etilishiga imkon beradi. Maqolada o'rganilgan Malayziya tajribasi korrupsiyaga qarshi kurashishda maxsus vakolatli organlar faoliyati, jamoatchilik nazorati, raqamli boshqaruv tizimlari va aholining huquqiy ongini oshirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribalarni milliy qonunchilik hamda amaliyotga tatbiq etish samarali natijalar berishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, korrupsiyaga qarshi kurashish faqatgina jinoiy javobgarlik choralari kuchaytirish bilan cheklanmasdan, huquqiy, institutsional, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy mexanizmlarning o'zaro uyg'unligi asosida amalga oshirilishi lozim. Davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kengaytirish hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ushbu yo'nalishdagi eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur salbiy hodisaning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish, davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus vakolatli organlar faoliyatini takomillashtirish ushbu yo'nalishdagi samarali choralar hisoblanadi. Tadqiqot davomida o'rganilgan Malayziya tajribasi ham korrupsiyaga qarshi kurashishda institutsional mustaqillik, jamoatchilik ishtiroki va huquqiy madaniyatni yuksaltirish muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Muallif tomonidan ilgari surilgan

¹⁵ National Anti-Corruption Strategy (NACS) 2024–2028. – Kuala Lumpur, 2024
<https://www.sprm.gov.my>

takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi davlat boshqaruvi tizimida shaffoflik va hisobdorlikni yanada kuchaytirishga, korrupsion xavflarni kamaytirishga hamda fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida huquqiy, institutsional va ma'naviy-ma'rifiy mexanizmlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish hamda xalqaro tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rose-Ackerman S. Corruption and Government: Causes, Consequences and Reform. – Harvard University Press, 1999.
2. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2017.
3. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi. – Nyu-York, 2003.
4. Rustamboyev M.X. Jinoyat huquqi (Maxsus qism). – Toshkent: TDYU, 2020.
5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
6. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2018.
7. Huntington S.P. Political Order in Changing Societies. – Yale University Press, 1968.
8. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi materiallari.
9. Transparency International. Corruption Perceptions Index Reports. – Berlin.
10. OECD Anti-Corruption and Integrity Outlook. – Paris: OECD Publishing.
11. World Bank. Worldwide Governance Indicators and Anti-Corruption Reports. – Washington D.C.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi farmon va qarorlari.

INNOVATIVE
ACADEMY